



## KORRUPSIYA – TARAQQIYOTGA TO`SIQ: TARIX, TAHLIL VA TAKLIF

Xolliyeva Durdona Dilmurod qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7712028>

### ARTICLE INFO

Received: 27<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 08<sup>th</sup> March 2023

Online: 09<sup>th</sup> March 2023

### KEY WORDS

Korrupsiya, jamiyat,  
konvensiya, huquq, indeks,  
taraqqiyot, islohot, huquqiy  
ong, huquqiy madaniyat.

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada jamiyat hayotida tarqalgan va ko`plab muammolarga sabab bo`layotgan korrupsiyaning tarixi haqida ma`lumotlar, dunyo bo`yicha va O`zbekistonda korrupsiyaning tarqalish indeksi tahlillari va uning oldini olish uchun takliflar keltirilgan.*

Barchamizga ma`lumki, korrupsiya nafaqat hozirgi kunda, balki o`tgan davrlarda ham davlat taraqqiyotiga salbiy ta`sir qilib kelgan. Korrupsiya lotincha “sorrupcio” so`zidan olingan bo`lib, poraga sotilish, aynish, tanazzul degan ma`nolarni anglatadi. Korrupsiya nima? Korrupsiya bu shaxsni mansab-mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog`liq bo`lgan jinoyat turidir. Bu jinoyat davlat vakolatiga ega bo`lgan shaxs o`ziga berilgan vakolatni suiste`mol qilishi natijasida kelib chiqadi.

Hozirgi kunda korrupsiya dunyo miqyosida ham o`z salmog`ini yo`qotganicha yo`q. Shuning uchun barchamiz jahonning rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni yana ham yaxshilanishi, tinchlik va osoyishtalikni ta`minlash maqsadida birlashmog`imiz darkor!

Xo`sh, korrupsiyaning dastlabki ko`rinishlari qayerlarda ko`zga tashlanadi? Korrupsiyaga qarshi kurash qachon va qayerda boshlangan? Korrupsiya hozir paydo bo`lib qolgan jinoyat emas. Tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, korrupsiyaga qarshi kurash ilk bor miloddan avvalgi XXIV asrda Mesopotamiyaning Lagash degan shahar-davlatida boshlangan. Insoniyat tarixida korrupsiyani tugatish yo`llari va huquqiy asoslari Hindistonda yaratildi. Bundan 2,5 ming yil avval yozilgan “Arxashastra yoxud Siyosat ilmi” kitobi davlatni boshqarish va xo`jalik yuritish mavzusiga bag`ishlangan bo`lib, o`sha davrning siyosiy va iqtisodiy qomusi sifatida dunyoga keldi. Mana shu kitobning 26-bo`limi korrupsiyaga bag`ishlangan, Bundan ko`rinib turibdiki, o`sha zamonlarda ham o`z ko`rinishiga ega bo`lgan. Hozirgi davrdagi korrupsiya tushunchasi asosan shaxsiy foyda olish maqsadida hokimiyatni suiste`mol qilishi natijasida kelib chiqadi.

Korrupsiya har bir davlatning, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini izdan chiqaruvchi eng og`ir jinoyat turidir. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti korrupsiyaga qarshi kurashishni maqsad qilib qo`ygan davlatlarni o`zida birlashtirdi. 2003-yil 9-dekabr kuni Meksikada BMT ning korrupsiyaga qarshi konvensiyasi imzolangan va ushbu kun



Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni sifatida e'lon qilingan. Shu tariqa, 2004-yil 9-dekabr kundan boshlab Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hozir dunyoda har yili 1 trillion AQSh dollari hajmida pora beriladi. Jahon iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSh dollari hajmida mablag'dan ayriladi. Bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizidir. BMT bosh kotibining bildirishicha, "Korrupsiya barcha davlatlarda – boy va qashshoq mamalakatlarda ham, shimolda va janubda ham mavjud. U Birlashgan Millatlar Tashkiloti qadriyatlarini va ideallariga tajovuzdir. Korrupsiya odamlarni maktablardan, kasalxonalaridan mahrum qiladi, investorlarni vahimaga soladi, tabiiy resurslar talon-taroj bo'lishiga olib keladi. U qonun ustuvorligiga putur yetkazib, boshqa turli jinoyatlar paydo bo'lishiga shart-sharoitlar yaratadi".[1]

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaning yoyilishi indeksi har yili aniqlanib turiladi. Bu vazifa xalqaro Transparency International tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Transparency Internationalning 2018-yil uchun indeksi 180 mamlakatni qamrab olgan va 0 dan (korrupsiyaning eng yuqori darajasidan) 100 gacha (korrupsiyaning eng past darajasigacha) bo'lgan ko'rsatkich asosida korrupsiyaning qanchalik yoyilganligini ko'rsatadi.

Transparency Internationalning 2020-yilgi reytingida O'zbekiston o'z o'rnini 7 pog'onaga yaxshilab, 180 ta davlat orasida 146-o'rinni egallagan edi. 2019-yilda mamlakat 153-o'rinda edi, 2018-yili 158-o'rinni, 2017-yilda 157-o'rinni, 2016-yilda esa 156-o'rinni egallagan. Transparency International xalqaro tashkiloti 2021-yil uchun "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" ning yangilangan reytingini e'lon qildi – deb yozadi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burhonov. Unga ko'ra, O'zbekiston 2020-yilga nisbatan 6 pog'onaga ko'tarilib, 180 mamlakat orasida 140-o'rinni egallagan. Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda ham bu jarayon yildan yilga kamayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi 2008-yilda BMT ning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shildi. 2010-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'i – Istanbul harakat dasturiga qo'shildi. Shu tariqa korrupsiyaga qarshi kurashishda bir qancha tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi qonunini qabul qilish haqida tashabbusini 2016-yil 14-oktabrda e'lon qildi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan esa 2016-yil 13-dekabrda maqullangan. Shu tariqa 2017-yil 3-yanvarda O'zbekiston Respublikasida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida" gi qonun qabul qilindi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, bugungi kunda yurtimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev alohida to'xtalib, quyidagi fikrlarni ilgari surdi: "Bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz – mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan yovuz illat, ya'ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini samarali hal qilishdan iboratdir." [2, 52]

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida ham "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini



olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi" – deb, ushbu illatni keskin qoralab o'tdi.[3]

Singapur va Gruziya davlatlari korrupsiyaga qarshi qattiq kurash olib borib, hozirgi kunda bir qancha yutuqlarga erishgan davlatlar hisoblanadi. Singapur korrupsiyani ancha qismini yenggan davlatdir. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurash, asosan, davlat hokimiyatiga Bosh vazir Lee Kuan Yewning kelishi sababli boshlandi. U o'z oldiga korrupsiyani yo'q qilish vazifasini qo'yadi. "Agar siz korrupsiyani yengishni istasangiz, do'stlaringiz va qarindoshlaringizni qamoqqa yuborishga tayyor bo'ling. O'z do'stlaringizdan uchtasini panjara ortiga o'tqazishdan ishni boshlang. Nima uchunligini siz ham, ular ham yaxshi bilasizlar" – deydi Lee Kuan Yew.[4] Albatta, hozirgi kunda korrupsiyaga aralashmagan insonlarni topish birmuncha qiyin. Transparency International tashkiloti korrupsiyani qabul qilish bo'yicha 2020-yilda e'lon qilingan indeksida Singapur 3-o'rinni egallagan.

Barcha davlatlar kabi Gruziyada ham korrupsiya muammo bo'lib kelgan. 2003-yilgi atirgul inqilobidan oldin, Foreign Policy ma'lumotlariga ko'ra, Gruziya Yevroosiyodagi eng korrupsiyalashgan davlatlar qatorida edi. Biroq, inqilobdan keyin korrupsiya darajasi keskin kamaydi. 2010-yilda Transparency International tashkiloti Gruziyani "dunyodagi eng yaxshi korrupsiyaga qarshi kurashgan davlat" deb belgilagan. So'nggi yillarda korrupsiya deyarli yo'q qilindi. Transparency International tashkilotining 2021-yilgi korrupsiyani idrok etish indeksi mamlakatni 180 mamlakat ichida 45-o'rinda, eng past o'rindagi davlatlar eng halol davlat sektoriga ega deb hisoblangan shkala bo'yicha hisoblangan.[5]

Korrupsiya illatiga qarshi kurashishda biz ham mana shu davlatlar kabi yutuqlarga erishishimiz mumkin. Korrupsiyani yo'q qilish uchun nima qilish kerak? Buning uchun insonlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirmog'imiz darkor! 2019-yil aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshilash maqsadida "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi Prezident farmoni qabul qilindi.[6] Insonlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllansa, har bir inson o'z haq-huquqlarini aniq bilsagina korrupsiya balosi yo'qolishi mumkin. Fuqarolarda huquqiy savodxonlikning pastligi faqatgina o'zlari uchun emas, balki, yon-atrofidagi do'stlari, yaqinlari ya'ni butun jamiyat uchun ham zararlarni keltirib chiqaradi.

Yana bir narsani aytib o'tish joizki, fuqarolar faqat jamoatchilik xizmatidan emas, balki oddiy fuqarolardan ham hayiqishi kerak. Yonimizda kimnidir pora berayotgan, pora olayotgan va pora berish jarayonida vositachi bo'layotganlarga nisbatan befarq, ya'ni loqayd bo'lmasligimiz kerak. Chunki loqaydlik ham taraqqiyotga to'siq bo'luvchi omillardan biridir. Loqaydlik bu – burch va mas'uliyatni his qilmaslik, atrofdagilarning, o'zining taqdiri va kelajagiga dahldor voqeliklarga e'tiborsizlikdir. Shu tufayli biz yonimizda bo'layotgan huquqbuzarliklarga nisbatan o'z qarashlarimiz, mulohazalarimizga ega bo'lishimiz, o'z haq-huquqlarimizni o'z o'rnida amaliyotda qo'llay bilishimiz kerak.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son
2. Shavkat Mirziyoev. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari - Toshkent. " O'zbekiston", 2020. –B.52.



3. [https://xs.uz/dunyo-bo`yicha-yiliga-bir-trillion-AQSh-dollar-miqdorida-pora-aylanadi"/10.12.2018-yil](https://xs.uz/dunyo-bo`yicha-yiliga-bir-trillion-AQSh-dollar-miqdorida-pora-aylanadi)
4. <http://www.ombudsman.uz/>
5. YouTube/Y3ΦAKT/korrupsiyani-yenggan-mamlakat-Singapur/
6. <https://uz.m.wikipedia.org/Gruziyada-korrupsiya/>
7. <https://xs.uz/jamiyatda-huquqiy-ong-huquqiy-madaniyatni-yuksaltirish/10.01.2019-yil>